



POLITICAL ADVERTISING AS A MEANS OF FORMING THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH

Gulbakhor Isanova

Associate Professor

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: political advertising, political culture, youth, civic consciousness, social activism, Information Communication, Political Education, political consciousness, modern society

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: This article analyzes the role and importance of political advertising in the formation of youth political culture. The writing put forward ideas about how political advertising affects the younger generation through modern sources of information, through which the formation of a civic position, political awareness and increased social activism. There are also recommendations on what effective political advertising should look like. The article covers the role of modern means of communication in the development of political thinking of young people.

SIYOSIY REKLAMA YOSHLARNING SIYOSIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Gulbaxor Isanova

dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: siyosiy reklama, siyosiy madaniyat, yoshlar, fuqarolik ong, ijtimoiy faollik, axborot kommunikatsiyasi, siyosiy tarbiya, siyosiy ong, zamonaviy jamiyat

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy reklamaning yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Yozuvda zamonaviy axborot manbalari orqali siyosiy reklama yosh avlodga qanday ta'sir qilishi, bu orqali fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi, siyosiy ong va ijtimoiy faollikning oshishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Shuningdek, samarali siyosiy reklama qanday bo'lishi lozimligi bo'yicha

tavsiyalar keltirilgan. Maqola yoshlarning siyosiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining tutgan o'rnini yoritadi.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ РЕКЛАМА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Гульбахор Исанова

Доцент

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	политическая реклама, политическая культура, молодежь, гражданское сознание, социальная активность, информационная коммуникация, политическое воспитание, политическое сознание, современное общество	Аннотация:	В данной статье анализируется роль и значение политической рекламы в формировании молодежной политической культуры. В работе выдвигаются идеи о том, как политическая реклама через современные источники информации влияет на молодое поколение, через нее формируется гражданская позиция, повышается политическое сознание и социальная активность. Он также предлагает рекомендации о том, какой должна быть эффективная политическая реклама. В статье освещается роль современных средств коммуникации в развитии политического мышления молодежи.
------------------------	---	-------------------	--

Hech kimga sir emaski, jamiyat hayotining demokratik asoslarda rivojlanishi hamda mamlakatni zamonaviylashtirish yo'nalishidagi islohotlar, ayniqsa, aholi tarkibidagi eng yirik ijtimoiy qatlam — yosh avlodning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar — jamiyatning tayanchi, ilg'or qatlamini tashkil qiluvchi kuch va kelajak istiqbolining bosh omilidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir davr yoshlari egallagan bilim darajasi, fikrlash doirasi, dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasi orqali jamiyatning ertangi kuni haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin[1].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan va Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yoshlar hayotida alohida o'rin tutadi. Ushbu huquqiy hujjat asosida yoshlarga doir davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va tamoyillari aniqlashtirildi. Jumladan, davlat siyosati doirasida yoshlarni har tomonlama ijtimoiy shakllantirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlar tizimi shakllantirildi[2].

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan yoshlarga oid siyosat ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik tamoyillari asosida olib borilmoqda. Shuningdek, bu siyosat yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni ustuvor deb bilish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik kabi prinsiplarni o'z ichiga oladi.

Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga yoshlarning qonuniy manfaatlari, erkinlik va huquqlarini himoya qilish, ularning salomatligi va farovon hayotini ta'minlash, jismoniy, ma'naviy, intellektual va axloqiy kamolotiga ko'maklashish kiradi. Bundan tashqari, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'lim tizimini yaratish, ularni ish bilan ta'minlash, milliy g'oya va qadriyatlar asosida tarbiyalash, zararli oqim va g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yoshlar uchun bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, sportni ommalashtirish, yosh oilalarga moddiy va ma'naviy ko'mak berish, ular uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish kabi kompleks ishlar bajarilmoqda [3]. Bu borada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim yo'nalishlardan biri bu davlat va jamiyat boshqaruv tizimini har tomonlama modernizatsiya qilish hamda yoshlarning bu jarayondagi faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir. Ayniqsa, 2017–2021 yillarda mamlakatni rivojlantirish bo'yicha belgilangan beshta ustuvor yo'nalishni qamrab olgan Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi, yoshlar bilan ishlashda yangi yondashuvlar va uslublarning shakllanishiga turtki bo'ldi.

Ushbu strategiyada davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlantirish, ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, tashqi siyosatning manfaatli va amaliy yo'nalishlarini belgilash asosiy yo'nalish sifatida belgilangan.

Hozirgi tez sur'atlar bilan o'zgarib, jadal rivojlanayotgan davrda deyarli barcha mamlakatlar zamon talablariga moslashgan yosh avlodni shakllantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Boshqacha aytganda, taraqqiyotning muhim omili bo'lgan ta'lim tizimiga sarmoya yo'naltirilmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir xalq va davlat o'z fuqarolarining bilimli va ma'rifatli bo'lishi uchun intilgan. Bu bejiz emas, albatta [4]. Har qanday davrda yangilik va o'zgarishlardan boxabar bo'lgan, faol ijtimoiy pozitsiyaga ega bo'lgan fuqarolar, ayniqsa yoshlar, mamlakat taraqqiyoti va barqarorligining asosiy kuchi hisoblanadi. Shu boisdan ham har bir jamiyat o'z a'zolarini, xususan yoshlarga ijtimoiy faollikni singdirish orqali ularni maqsadli va ongli tarzda tarbiyalab borishga intiladi.

Yosh avlodning huquq va erkinliklarini kafolatlash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mustaqillik g'oyalariga sodiqlikni shakllantirish, milliy o'zligini anglash, Vatanga mehr, uning kelajagiga daxldorlik va sadoqat tuyg'usini rivojlantirish, shuningdek, ularni turli salbiy mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish asosiy maqsadlardandir.

Demokratik jamiyat qurilishi va fuqarolik institutlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlarning faolligini kuchaytirish muhim o'rin tutadi. Bilimli, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, keng qarashli, yuksak ma'naviyatli va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan yoshlar safini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida ko'rilmogda.

Zamonaviy kasb-hunarlarni chuqur o'zlashtirishlari, doimiy ish bilan ta'minlanishlari, tadbirkorlik va biznes sohasiga keng jalb etilishlari, shuningdek, intellektual va ijodiy salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishlari uchun zarur sharoitlar yaratilmogda.

Yoshlarning ilmiy, badiiy va elektron adabiyotlarni o'qishga qiziqishini kuchaytirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini oshirish orqali ularning ongida ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa salbiy g'oyalarga qarshi barqaror immunitet shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmogda.

Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, oila qadriyatlarini mustahkamlash, yosh oilalar orasida ajrimlar sonini kamaytirishga qaratilgan samarali choralar ko'rilmogda. Yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish va ularning profilaktikasida yoshlarning bevosita ishtiroki ta'minlanmogda [5].

Zamonaviy jamiyatda siyosiy jarayonlarda ishtirok etish faqat saylov kunida ovoz berish bilangina cheklanib qolmaydi. Bugungi kunda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy faollikni oshirish va ayniqsa, yoshlarda siyosiy ongni yuksaltirish uchun turli vositalar ishlatilmogda. Shulardan biri — siyosiy reklama. Ko'pchilik buni faqat partiyalar yoki nomzodlar tomonidan saylov oldidan e'tiborni tortish uchun yaratilgan oddiy targ'ibot vositasi deb hisoblaydi. Aslida esa, siyosiy reklama — keng ma'noga ega, murakkab va ko'p qirrali kommunikatsion jarayondir. U yoshlarning siyosiy dunyoqarashini, tanqidiy fikrlashini va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Yosh avlodning axborotga bo'lgan munosabati avvalgi avlodlarnikidan tubdan farq qiladi. Ular ko'proq ijtimoiy tarmoqlar, videokontent va mobil ilovalar orqali axborot oladi. Ana shu nuqtada siyosiy reklamaning shakli va mazmuni moslashuvchan, zamonaviy va ta'sirchan bo'lishi lozim. Yoshlarga mo'ljallangan siyosiy reklama faqat targ'ibot emas, balki tarbiya vositasi hamdir. To'g'ri yondashilgan siyosiy reklama orqali yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat hissi, yurtga daxldorlik tuyg'usi, tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Siyosiy madaniyat — bu shunchaki siyosiy bilim emas, balki shaxsning siyosiy jarayonlardagi ishtirok etishiga bo'lgan ichki tayyorgarligi, unga bo'lgan qiziqishi va faol

fuqarolik pozitsiyasidir. Bu jihatdan qaralganda, siyosiy reklama yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatish orqali ularning siyosiy madaniyatini shakllantiradi. Misol uchun, ijtimoiy adolat, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki ta'lim tizimidagi islohotlar haqida berilayotgan reklamalar yoshlarni o'ylantirib qo'yadi, ularni o'z pozitsiyasini shakllantirishga undaydi [6].

Yosh auditoriyaga mo'ljallangan siyosiy reklama quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- ❖ Soddalik va aniqlik – noaniq, murakkab terminlardan voz kechish, tushunarli va lo'nda bayon qilish.
- ❖ Interaktivlik – videoroliklar, vizual infografikalar, so'rovnomalar orqali yoshlarning ishtirokini ta'minlash.
- ❖ Emotsional yondashuv – quruq faktlar emas, balki real hayotiy voqealar, misollar orqali yurakka yo'l topish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, siyosiy reklama — bu shunchaki e'lon yoki banner emas. Bu vosita orqali jamiyatning ertangi egalari bo'lgan yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatish, ularni siyosiy jihatdan yetuk, ijtimoiy faollikka intiluvchi fuqarolar sifatida tarbiyalash mumkin. Ammo buning uchun reklama mazmunan boy, shaklan zamonaviy va eng muhimi, yoshlar ruhiyatiga mos bo'lishi shart. Shundagina siyosiy reklama o'z vazifasini to'liq bajara oladi va yosh avlodni siyosiy jihatdan ongli, madaniyatli qilib voyaga yetkazishda samarali vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'chqorov O., Karimov R. Siyosiy madaniyat asoslari. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati to'g'risidagi Qonun. – Toshkent, 2019 (oxirgi tahrir – 2023).
3. Norqulov A.X. Yoshlar va siyosat: muammolar va yechimlar. – Toshkent: “Akademnashr”, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati to'g'risidagi Qonun. – Toshkent, 2019 (oxirgi tahrir – 2023).
5. Yo'ldoshev U. Siyosiy kommunikatsiyalar va axborot xavfsizligi. – Toshkent: “Ijtimoiy fikr”, 2022.
6. Karimova Z.X. O'zbekiston yoshlari va ularning siyosiy faolligini oshirish muammolari. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2023.